



KONTRAGENTNI BILISH (KYC) SIYOSATI

1. Purpose of KYC:

UZTMK qonuniy va halol biznes hamkorlari bilan hamkorlik qilishni ta'minlash, shuningdek, tashkilotni operatsion, moliyaviy va reputatsion xatarlardan himoya qilish maqsadida Kontragentlarni tekshirish va identifikatsiya qilish (KYC) jarayonini amalga oshiradi. Yetkazib beruvchilar va boshqa biznes hamkorlarning shaxsini, yuridik maqomini, mulkchilik tuzilmasini hamda haqiqiy benefitsiar mulkdorlarini tizimli ravishda tekshirish orqali moliyaviy jinoyatlar, korrupsiya, pul mablag'larini legallashtirish (yuvish), sanksiyalarni buzish yoki inson huquqlarining jiddiy buzilishi bilan bog'liq ehtimoliy xavf belgilarini ("red flags") oldindan aniqlash imkonini beradi.

Mazkur jarayon ta'minot zanjiri yaxlitligi va ishonchliligini ta'minlashning asosiy himoya mexanizmlaridan biri hisoblanadi hamda "O'zTMK" AJning biznes munosabatlari xalqaro savdo talablari, amaldagi qonunchilik va xalqaro sanksiya talablariga muvofiq yuritilishini ta'minlaydi. Umuman olganda, KYC jarayoni o'zaro ishonch, shaffoflik va yagona komplayens tamoyillariga asoslangan xavfsiz, barqaror va mas'uliyatli ta'minot zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Amal qilish doirasi:

Ushbu "**Kontragentlarni tekshirish va identifikatsiya qilish (KYC) siyosati**" (keyingi o'rinlarda — "**Siyosat**") "O'zTMK" AJ (keyingi o'rinlarda — "**Jamiyat**") hamda uning barcha xorijdagi sho'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari, affillangan tashkilotlari va nazorat qilinadigan qo'shma korxonalariga tatbiq etiladi.

Mazkur Siyosat talablari butun qiymat zanjiri doirasida mavjud va potensial uchinchi tomonlar bilan bog'liq barcha biznes munosabatlari hamda operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi.

- **To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita yetkazib beruvchilar:** Kompaniyaga xom ashyo, tovarlar yohud xizmatlarni bevosita yetkazib beruvchi yoki ishlab chiqarish jarayonining istalgan bosqichida ta'minot zanjiriga jalb etiladigan har qanday tashkilot.
- **Yuqori va quyi ta'minot zanjiri hamkorlari:** Mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash bosqichidan boshlab, tayyor mahsulotlarni yakuniy taqsimlashgacha bo'lgan barcha ishtirokchilar.
- **Vositachilar va vakillar:** Kompaniya nomidan yoki uning manfaatlarini ifodalagan holda faoliyat yurituvchi savdo tashkilotlari, brokerlar, agentlar, distribyutorlar, konsalting tashkilotlari hamda boshqa har qanday uchinchi tomonlar.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha tashkilotlar umumiy holda "**Yetkazib beruvchi**" deb yuritiladi va ushbu Siyosatda belgilangan tartiblarga muvofiq, ular bilan hamkorlikni boshlashdan, har qanday shartnoma tuzishdan yoki to'lovlarni amalga oshirishdan oldin majburiy ravishda tekshiruvdan (screening) va baholashdan (vetting) o'tkazilishi lozim.

Mazkur Siyosat Kompaniya tomonidan hozirda xom ashyo xarid qilinayotgan yoki kelgusida xarid qilish rejalashtirilayotgan barcha hududlarda qo'llaniladigan KYC hujjatlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Har bir holatda Kompaniyada ushbu jarayon uchun mas'ul yoki tayinlangan shaxs(lar) KYC hujjatlariga qo'yiladigan talablarni ko'rib chiqadi va tegishli izoh hamda xulosalarini taqdim etadi.

Ushbu Siyosat har qanday 12 kalendar oyi davomida qiymati 50 000 AQSh dollaridan oshmaydigan operatsiyalarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, rejalashtirilayotgan biznes munosabatlariga kirishish bilan bog'liq har qanday obro'-e'tibor va boshqa xavflarni asosli baholash imkonini beruvchi qaror qabul qilish uchun kontragentning shaxsi (shu jumladan, uning haqiqiy benefitsiar mulkdorlari) to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash va tushunish bo'yicha oqilona hamda tegishli choralar ko'rilishi lozim.

3. KYC Jarayoni

Ishonchli va mustaqil manbalardan olingan tasdiqlangan hujjatlar, ma'lumotlar yoki axborotlar asosida Yetkazib beruvchining tekshirilgan profilini shakllantirishni talab qiladi. Jamiyat Yetkazib beruvchini identifikatsiya qilish tartibi quyidagi uchta muhim bosqichda qat'iy amalga oshirilishini belgilaydi:

- **Hamkorlikni boshlash (Onboarding):** Yangi tijorat munosabatlari o'rnatilayotgan vaqtda.
- **Tranzaksiyani amalga oshirish:** Har qanday rasmiy shartnoma tuzishdan yoki muayyan tijorat operatsiyasini amalga oshirishdan oldin.
- **Qo'shimcha qayta baholash (Ad-hoc re-evaluation):** Avval olingan Yetkazib beruvchini identifikatsiya qilish ma'lumotlarining haqiqiyligi, ishonchligi yoki yetarliligiga nisbatan asosli shubha yuzaga kelgan har qanday holatda.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etish maqsadida Jamiyat keng qamrovli KYC so'rovnomasidan foydalanadi. Ushbu so'rovnomaning to'liq to'ldirish Yetkazib beruvchini hamkor sifatida ro'yxatdan o'tkazish jarayonining majburiy sharti hisoblanadi.

Kompaniya tomonidan tayinlangan Komplayens xodimi tomonidan tekshirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar Tekshiruv (vetting) jarayoni davomida Komplayens xodimi (yoki tayinlangan guruh) quyidagi asosiy ma'lumotlarni olishi, tekshirishi va hujjatlashtirishi shart:

a) Yakuniy benefitsiar mulkdorlar (UBO) va korporativ boshqaruv: Yetkazib beruvchining haqiqiy benefitsiar mulkdorlari hamda Direktorlar kengashi tarkibi aniqlanishi lozim. Mazkur ma'lumotlar Yetkazib beruvchidan rasmiy tashkiliy tuzilma va/yoki aksiyadorlik tarkibi sxemasini taqdim etishni talab qilish yoki Yetkazib beruvchining rasmiy korporativ veb-sayti hamda davlat korporativ reyestrlarida e'lon qilingan ma'lumotlarni o'zaro solishtirish orqali tasdiqlanishi kerak.

b) Materiallarning kelib chiqishi va ishlab chiqarilgan mamlakat: Yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilishi rejalashtirilgan materiallarning aniq geografik kelib chiqishi hamda ta'minot zanjiri yo'nalishi aniqlanishi lozim. Ushbu ma'lumotlar KYC so'rovnomasi doirasida to'g'ridan-to'g'ri yozma so'rovlar va rasmiy deklaratsiyalar orqali tasdiqlanishi kerak.

c) Moliyaviy barqarorlik va kreditga layoqatlilik: Yetkazib beruvchining moliyaviy barqarorligini baholash va kontragent xavfini kamaytirish maqsadida uning auditorlik tekshiruvidan o'tgan moliyaviy hisobotlari ko'rib chiqilishi lozim. Agar Yetkazib beruvchi bunday hisobotlarni taqdim eta olmasa, Komplayens xodimi ishonchli uchinchi tomon kredit reyting xizmatlari orqali moliyaviy ma'lumotlarni olishi kerak. Aniqlangan har qanday salbiy ma'lumotlar, salbiy kredit reytinglari yoki to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) xavflari rahbariyat tomonidan ko'rib chiqish uchun rasmiy ravishda qayd etilishi lozim.

d) Huquqiy maqom va faoliyat yuritish uchun ruxsatnomalar: Amaldagi va haqiqiy biznes litsenziyasi yoki yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma olinishi lozim. Bu Yetkazib beruvchining o'z ro'yxatdan o'tgan mamlakati yurisdiksiyasi talablariga muvofiq qonuniy tashkil etilganligi va faoliyat yuritish huquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

e) Sanoat dasturlari va shaffoflik tashabbuslaridagi a'zolik: Yetkazib beruvchining tan olingan sanoat barqarorligi yoki kuzatuvchanlik (traceability) dasturlariga, jumladan, **Responsible Minerals Initiative (RMI)**, **International Tin Supply Chain Initiative (iTSCI)** yoki shunga o'xshash yuqori va quyi ta'minot zanjiri tizimlariga a'zoligi tekshirilishi lozim. Yetkazib beruvchi o'zining rasmiy a'zolik raqamlarini taqdim etishi shart. Komplayens xodimi ushbu ma'lumotlarni tegishli dasturlarning rasmiy ma'lumotlar bazalari orqali mustaqil ravishda tekshirishi va tasdiqlashi kerak.

4. Tegishli milliy va xalqaro sanksiyalar ro'yxati

Kompaniya barcha yetkazib beruvchilar (jumladan, kompaniyalar, ularning vakillari va benefitsiar egalari) bo'yicha sanksiyalarni tekshirishi shart. Kamida, sanksiyalar tekshiruvi quyidagi ro'yxatlarni qamrab olishi kerak:

1. BMT Xavfsizlik Kengashining Sanksiyalari (UNSC):

- o "Konsolidatsiyalangan ro'yxat" (Consolidated List): aktivlarni muzlatish, sayohatni taqiqlash, qurol-yarog' embargosi.
- o Misol uchun: Darfur bo'yicha BMT Xavfsizlik Kengashining 1591-sonli Rezolyutsiyasi.
- o Terrorizm bilan bog'liq: BMT XK 1267/1989/2253 sanksiyalar rejimi (ISHID/Al-Qoida).

2. Mintaqaviy va Yevropa Ittifoqi (EI) Sanksiyalari:

- o EI sanksiyalari xaritasi (EU Sanctions Map): amaldagi sanksiya rejimlari.

- EI Mojarli minerallar bo'yicha reglamenti (EU) 2017/821: CAHRA hududlari uchun majburiy yetkazib berish zanjiri tekshiruvlari.
- RAND Europe tashkiloti EI tomonidan tan olingan CAHRA ro'yxatlarini yuritadi.
- 3. Milliy (O'zbekiston) Sanksiyalar Konteksti:**
 - O'zbekiston BMT XK sanksiyalarini milliy qonunchilikka integratsiya qiladi (masalan, BMT XKning 1540-sonli Rezolyutsiyasining ijrosi).
 - Moliyaviy institutlar konsolidatsiyalangan sanksiyalar ro'yxatidan foydalanadilar (BMT, OFAC, EI, Buyuk Britaniya va boshqalar).
- 4. Resurslar va minerallar sektori xavflarini nazorat qilish:**
 - RMI: CAHRA tartibi bo'yicha yo'riqnoma;
 - LME (London metallar birjasi): CAHRA bo'yicha yo'riqnoma.

Eslatma: Sanksiya ro'yxatlari muntazam ravishda yangilanib boriladi. Shu sababli, Kontragent bilan rejalashtirilayotgan shartnomaviy munosabatlar yoki tijorat operatsiyasini baholash jarayonida har bir sanksiya yoki eksport nazorati ro'yxatining eng so'nggi amaldagi tahriridan foydalanilishi shart.

5. Davriy qayta ko'rib chiqish va qayta tekshirish (Doimiy Due Diligence)

Yetkazib beruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning dolzarbligi va aniqligini ta'minlash maqsadida Kompaniya amaldagi tijorat munosabatlari davomida aniqlangan xavf darajasiga muvofiq davriy tekshiruvlarni amalga oshiradi. Agar Yetkazib beruvchining operatsion faoliyati, bitimlar hajmi yoki yuk tashish yo'nalishlari avval shakllantirilgan profilidan sezilarli darajada farq qilsa, Kompaniya mazkur nomuvofiqlik sabablarini aniqlash maqsadida qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni talab qiladi. Mazkur doimiy monitoring Kompaniyaning **Due Diligence** tartib-taomillarida nazarda tutilgan ta'minot zanjiri bilan bog'liq barcha xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirishni ta'minlaydi.

Yillik va shartli qayta tekshirish asoslari

- ☐ **Rejalashtirilgan yillik qayta ko'rib chiqish:** KYC bo'yicha kompleks qayta tekshiruv dastlabki hamkorlikni boshlash (onboarding) sanasi yoki oxirgi KYC tekshiruvi o'tkazilgan sanadan boshlab har **o'n ikki (12) oyda** amalga oshirilishi shart.
- ☐ **Faol bo'lmagan yoki tugatilgan biznes munosabatlari:** Agar Kontragent bilan biznes munosabatlari yoki shartnoma bekor qilingan, to'xtatilgan yoki **o'n ikki (12) oydan ortiq** muddat davomida faol bo'lmagan bo'lsa, Kompaniya mazkur Kontragent bilan biznes munosabatlarini qayta tiklash yoki yangi bitimlar hamda tijorat operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin KYC ma'lumotlarini to'liq yangilashi va qayta tekshiruvni muvaffaqiyatli yakunlashi shart.

Qayta tekshirish uchun talab etiladigan hujjatlar

Yangilash yoki qayta tekshirish jarayonida quyidagi dolzarb hujjatlar olinishi va tekshirilishi lozim:

- a) KYC so'rovnomasining yangi to'ldirilgan va imzolangan nusxasi.
- b) Korxonaning amaldagi tashkiliy tuzilmasi hamda aksiyadorlik (mulkdorlik) tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar.
- c) Auditorlik tekshiruvidan o'tgan eng so'nggi moliyaviy hisobotlar yoki yangilangan uchinchi tomon kredit reytingi hisoboti.
- d) Amaldagi va haqiqiy biznes litsenziyasi yoki yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnoma.

Eskalatsiya mexanizmi

Agar KYC yoki qayta tekshirish (re-screening) jarayonida Xaridlar bo'yicha menejer (Sourcing Manager) yoki Komplayens xodimi mustaqil ravishda hal qila olmaydigan har qanday **xavf belgisi (red flag)**, noaniqlik yoki komplayens bilan bog'liq masala aniqlansa, ushbu masala belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun yuqori boshqaruv darajasiga **rasmiy ravishda eskalatsiya qilinishi** shart.

Yakuniy qaror quyidagi mas'ul shaxslarning birgalikdagi muhokamasi va kelishuvi asosida qabul qilinadi:

- **A. Turdibayev** – Boshqaruv raisining tijorat va marketing masalalari bo'yicha o'rinbosari;
- **G. Aliyev** – Yuridik departament boshlig'i;
- **U. Shaxizirova** – Komplayens xizmati;
- **U. Salohutdinov** – Tijorat departamenti boshlig'i.

KYC istisnolari va xavf belgilarini (Red Flags) boshqarish

Agar Xaridlar bo'yicha menejer (Sourcing Manager), xaridlar bo'limi xodimi yoki boshqa vakolatli shaxs tekshiruv (vetting) jarayoni davomida biror muammo yoki nomuvofiqlikka duch kelsa, u hamkorni ro'yxatdan o'tkazish (onboarding) jarayonini darhol to'xtatishi va zudlik bilan Komplayens xodimi bilan maslahatlashishi shart.

Quyidagi holatlarda masalani eskalatsiya qilish majburiy hisoblanadi:

- KYC jarayoni yoki uning talablariga oid hal etilmagan savollar, noaniqliklar yoki tushunmovchiliklar mavjud bo'lsa.
- Kontragentdan talab etilgan hujjatlar, ma'lumotlar yoki deklaratsiyalarni olishda doimiy qiyinchiliklar yoki asossiz kechikishlar kuzatilsa.
- Kontragentga nisbatan to'plangan ma'lumotlar yoki ommaviy manbalar orqali olingan axborotlarda o'zaro zid ma'lumotlar, salbiy ommaviy axborot (negative media) yoki potensial xavf belgilarini (red flags) ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa.

Komplayens xodimi aniqlangan masalalarni o'rganadi va zarur tuzatish choralarini belgilaydi. Bunday choralar zaruratga qarab kengaytirilgan kompleks tekshiruvni

(Enhanced Due Diligence – EDD) o'tkazishni yoki qo'shimcha tasdiqlovchi hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishni o'z ichiga olishi mumkin. **Komplayens xodimi tomonidan barcha ochiq qolgan savollar, nomuvofiqliklar yoki aniqlangan masalalar rasmiy ravishda ko'rib chiqilib, ijobiy xulosa berilmaguniga qadar Kompaniya Kontragent bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi, xarid buyurtmasini (Purchase Order) rasmiylashtirishi yoki har qanday tijorat operatsiyasini amalga oshirishi qat'iy taqiqlanadi.**

6. Hujjatlarni yuritish, saqlash va maxfiylik

Hujjatlarni yuritish

Talab etilgan KYC ma'lumotlari qabul qilinib, tekshirilgandan so'ng, Kompaniya har bir Kontragent uchun alohida va himoyalangan komplayens hujjatlar to'plamini (compliance file) yaratishi hamda yuritishi shart.

Barcha hujjatlar, KYC so'rovnomalari va tekshiruv (screening) hisobotlari Kompaniyaning hujjatlarni saqlash siyosati hamda amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq xavfsiz tarzda arxivlanishi lozim. Bu tekshiruv (audit) jarayonida barcha harakatlar va qarorlarning izchilligini hamda kuzatuvchanligini (audit trail) ta'minlashga xizmat qiladi.

Maxfiylik talabi

Maqomi: Qat'iy maxfiy

Yetkazib beruvchidan KYC va **Due Diligence** jarayoni davomida olingan barcha ma'lumotlar, hujjatlar hamda tijorat faoliyatiga oid maxfiy axborot qat'iy maxfiy hisoblanadi.

Kompaniya ushbu ma'lumotlarning ruxsatsiz kirishdan ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydi hamda ularni qonunchilik yoki vakolatli davlat organlari tomonidan oshkor etish majburiy etib belgilangan hollar bundan mustasno, Kompaniyaning boshqa yetkazib beruvchilariga, mijozlariga yoki aloqador bo'lmagan uchinchi shaxslarga oshkor qilish, tarqatish yoki uzatishga yo'l qo'ymaydi.